TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-oktabr | 273-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida” gi 665-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida” gi 665-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 45-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 10, 25-moddalariga asosan,**qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 21-sentabrdagi “Toshkent tumani hududidagi bo‘sh turgan yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida” gi 665-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani “Oxunboboyev agro fayz” agrofirma hududida 3190q, 3191-konturdagi 4,15 gektar yer maydoni “Nosir jannat bog‘I” MCHJ yagona ta’sischisi va rahbari Nurtayev Nosir Isayevichning 2024-yil 5-sentabrdagi 202402474002814-sonli notarial tasdiqlangan arizasiga asosan, davlat zaxira yerlari tarkibiga qaytarilsin.

Davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonlari davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

4. Toshkent tumani hokimining o‘rinbosari (A.Oqiljonov) davlat zaxirasiga qaytarilgan yer maydonidan samarali foydalanish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari A.Oqiljonov va S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**